

**OYBEK ASARLARIDA ANTROPONIMLAR VA ULARNING
QO`LLANISHI
(BOLALIK QISSASI MISOLIDA)**

Muxiddinova Durdona Odilovna
Sharof Rashidov nomidagi SamDU
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va
madaniyati instituti talabasi
Yusupova Orzibonu
Sharof Rashidov nomidagi SamDU
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va
madaniyati instituti f.f.b.dotsenti

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada Oybekning “Bolalik” qissasida uchraydigan antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning obraz yaratish, muhitni jonlantirish va davr ruhini aks ettirishdagi funksiyalari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Asardagi nomlar onomastika sohasi nuqtayi nazaridan o`rganilib antroponimlarning badiiy matndagi pragmatik yuklamalari yoritiladi.

KALIT SO‘ZLAR: shaxs ismi, mahalliy shaxslar, laqab, an`ana, variantdosh.

KIRISH

O`zbek tilshunosligida onomastik birliklarning qo`llanilishida Oybek ijodi alohida o`rin egallaydi. Adibning asarlarida milliy ruh, realistik tasavvur va shaxsiy xotira uyg`unlashgan bo`lib, ayniqsa avtobiografik xarakterga ega “Bolalik” qissasi onomastik materiallarga nihoyatda boy. Mazkur asarda muallifning bolalik yillari, o`sha davr hayoti, mahalla muhitining o`ziga xosligi jonli va real tasvirlangan.

“Bolalik” qissasida uchraydigan shaxs nomlari nafaqat qahramonlarning ijtimoiy mavqei, xarakteri yoki kasbini ifodalaydi, balki o`sha davr o`zbek ismlarining tarixiy qatlamlarini aks ettiradi. Quyida asardagi ayrim antroponimlarni tahlil qilamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1. Asosiy qahramonning oilasidagi kishi ismlari va ularning tahlili:

Muso – qadimiy yahudiycha ism boʻlib, yahudiylar paygʻambari Moshe nomidan olingan boʻlib, maʼnosi turlichada izohlanadi: 1) qadimiy misrcha bola, chaqaloq; 2) qadimiy yahudiy suvdan tortib, chiqarib olingan; 3) arabcha ustara poki. Asar bosh qahramonining ismi hisoblanadi.

Dadaqoʻzi – oʻzbekcha ism boʻlib, dadasining ismini olgan, suyukli erka bola. “Dadaqoʻzi ismi otaga sodiq, otasining yoʻlini davom ettiruvchi farzand” degan ezgu va milliy maʼnoni oʻzida mujassam etadi. Bu ismli obraz bosh qahramonimizning buvasi.

Shahodat – arab tilidan oʻzlashgan boʻlib, guvohlik beruvchi. Guvohlik, tasdiq – biror narsaning haqligiga guvohlik berish, tan olish maʼnosida; Alloh yoʻlida jonini fido qilgan insonning maqomi; “La illaha illalloh Muhammadur Rasululloh” degan kalimani aytish, yaʼni imon keltirish guvohligi. Bu ism asarda bosh qahramonning onasi boʻlib ishtirok etadi.

Isavoy – qadimiy yahudiy tildan oʻzlashgan. “Iso paygʻambar kabi ulugʻ va boy, baxtli, farovon inson”. Bu obraz asarda bosh qahramonning tugʻishgan akasi boʻlib qatnashadi.

Karomat – arabchadan oʻzlashgan, oliyjanoblik, saxiylik yoki moʻjizali bola. Karomat ismi keyingi maʼnoda badanida birorta gʻayritabiiy belgi bilan tugʻilgan bolalarga atab qoʻyiladi. Bu ismning egasi asarda bosh qahramonning opasining ismi boʻladi. U maktabda, yaʼni Otinbibining uyida tahsil olar edi.

Hoji – ziyoratchi, sigʻinuvchi, hajga borgan, Kaʼbani ziyorat qilgan shaxs. Ushbu Hoji ismi, asosan, oʻgʻil bolalarga qoʻyiladi va bu ism arabcha boʻlib, Musoning ukasining ismi hisoblanadi.

Toshmuhammad – joni toshdek mahkam boʻlsin va Muhammad (s.a.v.) oʻz panohida asrasin maʼnoslarida oʻgʻil bolalarga atab qoʻyiladi. Arab tilidan olingan boʻlib, ”tosh” va “Muhammad” asoslaridan iborat murakkab antroponimdir.

2. Asardagi mahalliy shaxs nomlari, laqablar va ularning tahlili:

Toshmat – Toshmuhammad; joni toshdek mahkam bo'lsin. Bu ism egasi asarda tuyakash epik obrazini gavdalantirgan.

Mirahmad – arabchadan olinganda, baland martabali o'g'il Muhammaddek bo'lsin. Asarda bosh qahramonimiz bobosining do'sti sifatida qatnashgan.

Sobir baqqol – arab tilidan olingan bo'lib, sabrli, toqatli bola ma'nosida tanlanadi. Bu nom Ayb payg'ambarning laqabi bo'lgan. Dinimizda sabr – eng oliy fazilatlardan biri sanaladi. Shu sababli, Sobir ismi “sinovlarga bardosh beruvchi sabr-toqatli inson” degan ma'noga ega. Baqqol esa uning laqabi bo'lib, uning do'konida pashshalardan qoraygan teshikkulcha, qurtlagan jiyda va turshaklardan tortib to toshko'mir, quruq beda, makkaisanogacha har narsa topilar edi.

Egamberdi – o'zbekcha ismlardan biri bo'lib, Alloh ato qilgan bola. “Egam” – Yaratgan zot, “berdi” – ato etdi, ehson qildi ma'nolarida keladi. Bu ism xalq orasida farzand uchun shukronalik sifatida qo'yilgan. Ota-ona farzandni Allohning sovg'asi deb bilgan. Asarda Musoning tog'asining ismi.

Mirmahmud – arab tilidan o'zlashgan bo'lib, tarixan sharaflı, diniy-ma'naviy ma'noga ega. “Mir” – “amir, sardor”, “Mahmud” – maqtoqli, olqishlangan, yuksak fazilatli ma'nolarini bildiradi.

XULOSA

“Bolalik” qissasidagi antroponimlar badiiy matnning mazmun – mohiyatini ochishda muhim komponent hisoblanadi. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek har bir ismni shaxs xarakteri, muhit, davr ruhi, milliylikni ko'rsatish maqsadida puxta tanlangan. Antroponimlar asardagi milliy koloritni yaratgan, xarakterlarni jonlantirganini guvohi bo'ldik.

Adabiyotlar:

1. Oybek. Bolalik: Qissa va hikoyalar. – T.: Sharq, 2008.
2. Oybek. Bolalik xotiralarim. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.

3. Бегматов Э. Узбек исмлари маъноси. – Тошкент:Узбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2007.

4. <https://ismlar.com>